

UDK 338.46

Ruziyeva Gulnoz Fatillojeva
tayanch doktorant Buxoro Davlat Universiteti
gulinozr@mail.ru

HUNARMANDCHILIKKA OID HUKUMAT SIYOSATINING TARIXIY ASPEKTLARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: Maqolada Amir Temur va uning hunarmandchilikni rivojlantirish borasida olib borgan iqtisodiy siyosatining o'ziga xos xususiyatlarini bugungi kun nuqtai-nazaridan baholab, tahlil qilishga harakat qilingan. Bunda ushbu mavzu doirasidagi mavjud manbalar asosida hunarmandchilik faoliyati va turlarini ikki davr nuqtai-nazaridan o'zaro solishtirish asosida buyuk Sohibqironning hunarmandchilikni rivojlantirish borasidagi olib borgan iqtisodiy siyosatidan bugungi kunda foydalanishning o'ziga xos ahamiyatli jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: IV-XV asrlar, Movarounnahr, Amir Temur, Samarqand, hunarmand, hunarmandchilik turlari, ishlab chiqarish, savdo munosabatlari, hunarmandchilik festivallari, uyushma, milliy hunarmandchilik.

Аннотация: в статье ставится задача оценить и проанализировать жизненную деятельность Амира Темура проведенную им экономической политики по развитию ремесел с сегодняшней точки зрения. Раскрываются особенности использования экономической политики великого Сахибкирана в развитии ремесел в наши дни, на основе имеющихся источников по этой теме, сравнивая деятельность и виды ремесел с позиции двух периодов.

Ключивые слова: Мовароуннахр, Амир Темур, Самарканд, ремесленник, виды ремесел, производство, торговые отношения, ремесленные фестивали, объединение, народные промыслы.

Abstract: The article aims to evaluate and analyze the specifics of Amir Temur and his economic policy for the development of handicrafts from today's point of view. The features of the use of the economic policy of the great Sahibkiran in the development of crafts today are revealed, based on available sources on this topic, comparing the activities and types of crafts from the position of two periods.

Key words: Movarounnahr, Amir Temur, Samarkand, craftsman, types of crafts, production, trade relations, craft festivals, association, folk crafts.


Bugungi globallashuv va yuksak texnologiyalar davrida hunarmandchilikka shunchaki o'tmish yodgorligi sifatida qaramay, uning tarixiy asoslarini o'rganish, davlat va jamiyat tomonidan keng qo'llab - quvvatlash dolzarb masalalardan biri hisoblanib, xalqaro doirada bu masalaga ilmiy va amaliy jihatdan yondashuv tubdan o'zgarmoqda. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda kichik doirada ishlab chiqarish faoliyatini rag'batlantirish imkoniyatiga ega shaharlarni ijtimoiy- iqtisodiy jihatdan barqarorlashtirishda hunarmandchilik alohida ahamiyatli soha sifatida, shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlar milliy iqtisodiyotining mustahkamlanishiga hissa qo'shuvchi mahalliy maxsulotlar eksportini ko'paytirish manbai sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimizda milliy hunarmandchilik va uni rivojlantirish bo'yicha yuksak salohiyatga ega bo'lib, milliy-tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan hunarmandchilik turlarini saqlash, qayta tiklash, shuningdek, salohiyatli yoshlarni ko'proq jalb qilib, nafaqat bu sohaning davomchilarini shakllantirish balki, aholi bandligini ham ta'minlashda o'zini

oqlagan boy tarixiy tajribalardan foydalanishni davr taqozo qilayotgan muhim masalalaridandir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Bu haqda so'z yuritganda, aytish lozimki, biz ulug' bobolarimizning munosib davomchilari bo'ladigan yetuk insonlarni tarbiyalash masalasiga, afsuski, yetarlicha ahamiyat bermadik. Holbuki, intellektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boyluk ekani, nodir talant egalarini tarbiyalab kamolga yetkazish hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo'q. Rivojlangan mamlakatlar bugungi yuksak taraqqiyot darajasiga aynan shuning hisobidan yetgani – bu ham haqiqat" [2].

Hunarmandchilik faoliyatining rivojlanish tarixiga nazar tashlasak, ixtisoslashgan mehnat jamoasining ma'lum shakli sifatida jamiyatda mavjud bo'lgan. U avval qishloq xo'jaligidan alohida ishlab chiqarish sifatida paydo bo'lib, so'nggi 200 yil ichida ommaviy ishlab chiqarish va mexanizatsiyalashgan fabrika sanoatidan farqli o'laroq, asosan kichik hajmdagi tovar ishlab chiqarish faoliyati sifatida amal qildi.

O'zbekiston xalqlari o'zlarining hunarmandchilik san'ati tarixida yirik bosqichlarni bosib o'tgan bo'lib, har bir bosqich o'zining mintaqaviy xususiyatlari bilan farqlanadi. Shu bilan birga, mahalliy an'analarning yangi asoslarda, qo'shilish va uyg'unlashuv uslublarida taraqqiy etganligi kuzatiladi [3;4;5] (1-rasmga qarang).



1-rasm. Hunarmandchilik faoliyatining tarixan rivojlanish bosqichlari

Bugungi kunga qadar iqtisodchi olimlar tomonidan yurtimizda turli tarixiy bosqichlarda davlatni boshqargan hukmronlar, xususan Amir Temurning hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish borasidagi olib borgan iqtisodiy siyosati alohida tadqiqot sifatida ko'rib chiqish, uning hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlash borasidagi olib borgan

islohotlarining o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy tadqiq etish va undansamarali foydalanish zaruriyati dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Amir Temurning davlat boshlig'i sifatida saltanatning iqtisodiy taraqqiyotida tutgan o'rni, ayniqsa hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirishda olib borgan iqtisodiy siyosati shu kungacha alohida mavzu sifatida iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilmagan. Lekin mazkur masalada, uning zamondoshlari bilan birga ijtimoiy fanlar doirasida dunyoning yetakchi xorijiy va mahalliy yozuvchi hamda olimlari o'z asarlarida qisman bo'lsada to'xtalib o'tganlar.

XIV asrning 60 yillarida Movaraunnahrda siyosiy va iqtisodiy vaziyat nihoyatda og'irlashib, hunarmandlarning mavqeining yomonlashishi, ularning o'rtasida yarim qullik munosabatlari paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi. Mo'g'ullar bosqinida butunlay vayron etilgan va aksari aholisi qirib tashlangan va qisman qul qilingan Samarqand shahri Temur hukmronligi davrida ozining qadimgi o'rni Afrosiyobdan birmuncha janubroqda butunlay yangitdan quriladi. Bu davrda Samarqandda ko'rkam va muhtasham binolar qad ko'tarishi bilan birga shahar atrofida turli-tuman kasbdagi hunarmandlar uchun mahallalar qad ko'taradi. Temur mamlakatda, xususan uning poytaxti Samarqandda hunarmandchilikni rivojlantirishga alohida e'tibor beradi [4].

Temur, Samarqandning poytaxt sifatida o'sishi o'ziga xos siyosiy ahamiyatga ega ekanligini yaxshi bilar edi. Buni Samarqanddagi keng ko'lamlislohotlar va qurilish ishlari olib borilganligi bilan baholash mumkin. Temur birinchi navbatda e'tibor qaratgan narsa – bu yerda hunarmandchilik mahsulotlarini ko'paytirish edi. Biroq, Samarqandning ishlab chiqarish zahirasini faqatgina sun'iy yo'l bilan tez fursatda ko'tarish mumkin edi. Bunda, ishgo'l qilingan hududlardan ishchi kuchlarini majburiy ko'chirib keltirish eng qulay vosita bo'ldi [7].

Aytish joizki, Amir Temurning barcha hatti-harakatlari davlat, jamiyat va xalqning manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan edi. U hamisha xalq g'ami bilan yashagan, tabiiyki, aholining farovonligi yaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar bilan belgilanadi. Shuningdek, hukmronlik ostidagi mamlakatning chegaradosh mamlakatlar bilan munosabati, uning siyosiy o'rni alohida ahamiyatga egadir [8]. Shubilan birga adolatli boshqaruv tizimi hamda Amir Temurning shaxsiy xususiyatlari hunarmandchilikning keng miqyosda rivojlanishiga sharoit yaratgan.


Temur yurishlar davrida, eski odatiga binoan mohir hunarmandlarning hayotini ular o'z san'ati bilan Samarqandni obod qilishlari uchun saqlab qolgan [9].

Ibn Arabshohning yozishicha, «Temur har qanday hunar va kasb bo'lmasin, agar unda biron fazilat va shafolat bo'lsa, shu kasb egalariga g'oyatda mehr qo'ygan edi. U tabiatan masxaraboz va shoirlarni yoqtirmas, munajjim-u tabiblarni (o'ziga) yaqin tutib, ular gaplariga e'tibor qilar va so'zlarini tinglardi» [10].

Bugungi kunda hunarmandchilik faoliyatining rivojida har bir tarixiy bosqichning hissasini anglab yetish qiyin emas, shuningdek bu sohani rivojida har bir davrda olib borilgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohatlar o'rtasida mantiqiy bog'liqlik mavjud. Ayniqsa, buyuk sohibqiron Amir Temurning bu boradagi islohotlari bugungi kunda o'z aksini topmoqda. Buni ikki bosqichda, hunarmandchilik faoliyati turlarining amal qilishida hamda uni rivojlantirish doirasida olib borilayotgan keng ko'lamlislohotlarda ko'rish mumkin. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, faoliyat turi asosan qo'l mehnati yetakchiligida amal qilar ekan, milliy qadriyatlarimizning bir bo'laki hisoblangan milliy taomlar, shirinliklar, turli xil ziravorlar, quruq mevalar tayyorlash kabi turlarini ham hunarmandchilik yo'nalishlari tarkibiga kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, bu faoliyat turlari ham milliy hunarmandchilikning asosiy xususiyatlarini o'z ichiga olishi

bilan birga ustoz-shogird an'analari asosida amal qiladi. Shuningdek, o'zbek xalqining etnik tarkibini murakkabligi, har bir hudud bo'yicha uzoq yillar davomida amal qilib kelayotgan turmush tarzi, qadriyatlariga nisbatan xalqaro doirada e'tibor yuqori ekanligini inobatga olsak, ushbu yo'nalishlar yurtimizni yanada tarannum etish bilan birga turizm imkoniyatlarini kengaytirish, turli xil xalqaro doirada ko'rgazmali tadbirlar o'tkazishda ham qo'l keladi.


Hozirda, mamlakatimiz, qonunchiligida nazarda tutilg hunarmandchilik yo'nalishlari va unda faoliyat olib borayotgan hunarmandlar sonini sarhisob qilsak, hunarmandchilik yo'nalishlari bo'yicha statistik ma'lumotlarni o'zaro solishtirsak, uyushmaga a'zo hunarmandlarning asosan zamonaviy hunarmandchilik yo'nalishlari bo'yicha bandligini ko'rishimiz mumkin.



2-rasm. "Hunarmand" uyushmasi a'zolarining ruyxati 2020-2021 yillar kesimida
(Respublika "Hunarmand" uyushmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi)

Aksariyat badiiy va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan hunarmandchilik yo'nalishlarida qo'l mehnatining ustunligi, tabiiy xom-ashyoni yetishtirish va tayyorlash hamda yangi ijodiy ishlanmalarni tayyorlash bilan bog'liq jarayonlarning vaqt talab qilishi mahsulot hajmining ortib borishinisekinlashtirib, uning tannarxini ortib borishiga sabab bo'ladi, shu bilan birga ushbu mahsulotlarning xaridorligi turli xil qadriyatlarimiz bilan bog'liq marosimlar va turizm imkoniyatlarining yuqoriligiga chambarchas bog'liqdir.

Bugungi kunda ham xalq amaliy san'atini yo'nalishlarini qo'llab - quvvatlashda ushbu islohotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Buni xalq amaliy san'ati yo'nalishlarini umumiy hunarmandchilik tarkibida alohida guruhlanib, ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha alohida ustuvorliklar beruvchi milliy katalogning joriy etilganida ko'rish mumkin.



3-rasm. Milliy katalogga kirgan xalq amaliy san'ati ustalarining hududlar bo'yicha guruhlanishi⁴

Xususan, Amir Temur va Temuriylar davriga nazar tashlasak, hunarmandchilikni tarkiban yirik ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Oddiy hunarmandchilik: uy-ro'zg'or buyumlari, kiyim-kechak, oziq-ovqat hamda turli maishiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq hunarmandchilik.

2. Xalq amaliy san'ati: me'morlik bezagi, badiiy hunarmandchilik turlari, qo'lyozma san'ati, miniatyura va boshqalar [20].

Bu davrda davlat tomonidan xalq amaliy san'ati yonalishlarini oddiy hunarmandchilik yo'nalishlariga nisbatan qo'llab-quvvatlashda alohida ustuvorlik berilganligi bir qator tarixiy manbalar va tadqiqotlardan ma'lum [21;22;23]. (3-rasm)

Yuqorida qayd etilgan islohotlardan ko'rinib turibdiki, Amir Temur ilm-fan, din soha vakillari bilan birga hunarmandchilikning yetakchi sohalarini vakillarini qadrlab, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan taraqqiy etishiga shaxsan o'zi boshqosh bo'lgan. So'nggi yillarda hunarmandchilikka oid qabul qilingan qonun hujjatlarida aks etgan chora-tadbirlar tizimida Amir Temurning tom ma'noda amalga oshirgan islohotlarining davomini ko'rish mumkin.

Uning o'zga davlatlar ustidan qozongan g'alabalarini nishonlash, shuningdek, sohibqironning oilasi bilan bog'liq to'y-marosimlar hamda turli bayramlarda an'ana tusiga kirgan hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish maqsadida muntazam ravishda turli xil ko'rgazma va yarmarkalarning o'tkazib turilishi tarixiy manbalardan ma'lum.

Respublikamizda so'nggi yillarda mahalliy va xorijiy doirada ko'rgazma va festivallarning muntazam o'tkazib turilishi, shu bilan birga milliy hunarmandchilik vakillarini xalqaro festival va ko'rgazmalarda ishtiroki etib borishini davlat siyosati darajasida qo'llab quvvatlanayotganini alohida qabul qilingan qonun hujjatlarida aks etgan chora-tadbirlar tizimi va belgilangan imtiyozlarda ko'rish mumkin [24;25;26].

Xususan, respublika hududlarida jami 102 ta turli darajadagi tadbirlar, shu jumladan 11 ta festivallar, 48 ta ko'rgazmalar, 15 ta savdo-ko'rgazmalari va 12 ta boshqa turdagi ommaviy tadbirlar o'tkazish orqali aholi o'rtasida xalqimizning an'anaviy hunarmandchiligi keng targ'ib qilindi. Shu bilan bir qatorda an'anaviy tus olgan respublika va xalqaro miqyosda o'tkaziladigan ko'rgazma va festivallarimiz ham borki, ularni hunarmandlarimiz orziqib kutadilar. Sababi, bunday tadbirlarda hunarmandlarimiz o'z mahsulotlarini sotibgina qolmay, ma'naviy ozuqa olib, madaniy hordiq chiqaradilar, o'zaro tajriba almashadilar, chet davlatdan kelgan hunarmandlar bilan tanishadilar, do'stlar orttiradilar.

Zabt etgan va hukmronligi ostida bo'lgan mamlakatlardan mohir, yetuk xalq amaliy san'ati vakillarini poytaxtga olib kelib, o'z davlatxonasidan joy bergan.


Asosan Eron, Hindiston, Shom (Damashq), Turkiya va boshqa yurtlardan kelgan mohir hunarmandlarning mahalliy hunarmandlarga ustozlik qilib, o'z san'ati va tajribasini o'rgatishga homiylik qilingan.

Har bir ijodiy guruhga mansub usta-hunarmandlarning o'z ijodiy g'oya va ishlanmalarining (loyiha) amalga oshirishida o'z sha davrning yuksak madaniy talabidan kelib chiqib, g'amxo'rlik qilgan va davlat xazinasidan moliyalashtirilgan.

Shogirdlik istagida bo'lgan yoshlarning barchasi ham bu imkoniyatga ega bo'lmaganlar. Ular tanlov asosida va ijtimoiy tabaqasidan kelib chiqib shogirdlikka olingan.

Hunarmandlar o'rtasida o'zaro raqobatni kuchaytirish hamda tajriba almashinuvini nazarda tutib, ularni alohida ixtisoslashgan mahallalarda istiqomat qilishlari nazoratga olingan.

Yangi ijodiy namunalar olish, o'zga yurtlarning mashhur hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlash texnikasi laboratoriya sharoitida o'rganilib, mahalliy hunarmandlar tomonidan yangi xorijiy mahsulotlarning o'rni bosadigan sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish jarayoni alohida qo'llab quvvatlangan.



- Qo'lyozma san'ati va miniatyura asarlari sohibqiron va uning avlodlari tomonidan davlat kutubxonasi tomonidan alohida buyurtma qilib, juda kata mablag' evaziga sotib olingan;
- Tajribali va davlat uchun naf keltiradigan hunar ahlini yurtni tark etishga yo'l qo'ymagan

4-rasm. Amir Temur va Temuriylar davrida Xalq amaliy san'atini qo'llab-quvvatlash bo'yicha olib borilgan islohotlar

Buxoro shahridagi “Ipak va ziravorlar” va “Zargarlik va zardo`zlik”, Marg’ilondagi “Atlas bayrami” xalqaro festivallari, uyushma tashabbusi bilan har yili o’tkazib kelinayotgan “Mustaqil yurt hunarmandlari” “Hikmatlar olami” deb nomlangan Respublika Xattotlik festivali, "Oltin qo'l hunarmand" singari festivallarda respublikamizdagi hunarmandlardan tashqari xorijiy davlatlardan ham hunarmandlar ishtirok etadilar. 2018 yil sentyabr oyida Toshkent shahrining Sayilgoh ko'chasida birinchi marta tashkil etilgan “O'zbekiston sovg'alari” nomli savdo ko'rgazmada 200 ga yaqin hunarmandlar ishtirok etdi.

O'zbekistonda o'tkazilishi nazarda tutilgan mahalliy va xorijiy ahamiyatga ega tadbirlarga doir imtiyozlar



5-rasm. Milliy hunarmandchilik yo'nalishlari bo'yicha xalqaro va mahalliy doirada ko'rgazmalar va festivallarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha imtiyozlar

Ushbu ko'rgazmali tadbirlarning so'nggi yillarda yuksak saviyada tashkil etib borilishi, mahalliy va xalqaro doirada hunarmandchilik mahsulotlarining an'anaviy milliy xususiyatlari, hunarmandchilik yo'nalishining jozibasi va tarovati, o'ziga xos uslub va maktabga egaligi, hunarmandchilik mahsulotining tarixiy ildizga egaligi hamda o'z ahamiyatini yo'qotmaganligini xalqaro va mahalliy doirada e'tirof etishdir.

XULOSA

Bugungi davr xususiyatidan kelib chiqib, ijodiy yondashuv yuqori bo'lgan turli tarixiy davrlarga tegishli bo'lgan hunarmandchilik mahsulot (xizmatlar) larini ishlab chiqarish an'analariga sodiq qolib, uning sir- asrorlarini avloddan avlodga davom etkazib kelayotgan xalq amaliy san'ati va milliy hunarmandchilik yo'nalishlarida faoliyat olib boruvchi ustoz-hunarmandlar hamda ushbu hunar turlarini o'zlashtirayotgan yosh avlod vakillarini alohida rag'batlantiruvchi imtiyozli shart-sharoatlarni yaratish zarur:

1. Birinchi qadamni mahalliy imkoniyatlarni to'la ishga solishdan boshlash lozim, bunda:

- uzoq yillardan beri uyushmaga a'zo bo'lib kelayotgan, kamida 15-20 yillik o'z faoliyati doirasida tajribaga ega bo'lgan, an'anaviy tarzda oilaviy shajara davomchilari – usta-hunarmandlarni alohida mukofot (moliyaviy yoki moddiy) tayin qilish evaziga uslubiy qo'llanmalar, kitoblar yoki ilmiy maqolalar yozishga jalb qilish, bunda zarur bo'lsa, ilmiy tadqiqotchilar hamkorligini yo'lga qo'yish;

- hunarmandlarning ilmiy izlanishlar bo'yicha ko'nikmalarinishakllantirish, mavjud kutubxona va elektron manbalardan foydalanish bo'yicha malakali mutaxassislar tomonidan mahorat darslarini tashkil etish;

- aholi va hunarmandchilik vakillari qo'lida bo'lgan noyob sohaga oid ilmiy-tarixiy kitoblarni aniqlab, davlat yoki uyushma hisobidan sotib olish hamda nusxalarini chop etish, shuningdek, respublika va viloyat kutubxonalaridagi mavjud manbalarni ko'paytirish, ilmiy izlanish qilish niyatida bo'lgan hunarmandlarni ushbu manbalar bilan ta'minlash;

- «Hunarmand» uyushmasi rasmiy saytlarida hunarmandlar ilmiy ko'nikmalarini oshirish maqsadida xorijiy va mahalliy manbalardan iborat elektron kutubxonani tashkil etish;

- vaqti-vaqti bilan milliy hunarmandchilik yo'nalishlari bo'yicha Respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarni o'tkazib borish;

- hunarmandlar o'rtasida ijodiy va innovatsion yondashuvni rivojlantirish maqsadida tarixiy ahamiyatga ega mahsulot turlarini qayta tiklash va xizmatlarni yaratish bo'yicha loyihalar tanlovini o'tkazib borish zarur;

2. Kelajakda soha doirasida ilmiy-tarixiy izlanishlarni ko'paytirish maqsadida, madaniyat va san'at institutlarida yetakchi ahamiyatga ega bo'lgan milliy hunarmandchilik turlari bo'yicha yo'nalishlar sonini ko'paytirish, bunda:

- hunarmandchilikning ilmiy, tarixiy va amaliy jihatlarini bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish;

- ta'lim berishda professor-o'qituvchilar va boy tajribaga ega bo'lgan usta-hunarmandlar hamkorligini yo'lga qo'yish;

- xalqaro toifadagi badiiy hunarmandchilik yo'nalishlarini ochish;

- hunarmandchilik yo'nalishlari bo'yicha boy tajribaga ega bo'lgan xorijiy mamlakatlardan yetakchi malakali professor-o'qituvchilar va hunarmandlarni jalb qilish.

- hunarmandchilikning ayrim yetakchi turlari bo'yicha adabiyotlar, o'quv qo'llanmalari yozishda boy tajriba va ilmiy salohiyatga ega bo'lgan xalqaro doiradagi mutaxassislar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- bu sohada ilmiy faoliyat olib borayotgan xalqaro va mahalliy doiradagi tadqiqotchilar va mahalliy tajribali hunarmandlar hamkorligidagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan belgilangan Nizom asosida Binar himoyalarni ko'paytirish va uni alohida rag'batlantirish mexanizmini ishlab chiqish zarur;

- hunarmandchilik va xalq amaliy san'ati bo'yicha ta'lim olayotganyoshlarni xorijiy

mamlakatlarga amaliyot o'tash yoki malaka oshirishga jo'natish tizmini yo'lga qo'yish va takomillashtirish;

- xorijiy hunarmandchilik yo'nalishlari bo'yicha tashkilotlar va uyushmalar bilan birga hamkorlikda xorijiy hunarmandlarning xom-ashyo, texnologiyalardan foydalanish, mahsulot va xizmatlarni yaratish bo'yicha ham mahorat darslarini tashkil etish;

- hunarmandchilikka ixtisoslashgan hududlarda hunarmandchilik klasterlarini joriy qilish, bunda mahsulot va xom-ashyo tayyorlash, uning tarixiy turlarini tiklash, va yangi ijodiy ishlanmalarni amalda joriy qilishlari uchun maxsus laboratoriyalar faoliyatini yo'lga qo'yish;

- hunarmandchilik yo'nalishlari bo'yicha uzoq yillik tajribalarga ega bo'lgan hamda avloddan avlodga o'tib kelayotgan hunarmandchilik an'alarini davom ettirayotgan ustoz hunarmandlarni davlat tomonidan ularni qanoatlantiradigan yuqori oylik-maosh tayinlash yo'li bilan o'z sohalari bo'yicha ilmiy va amaliy bilimlaridan samarali foydalanish va kelajak avlodga yetkazish maqsadida Musiqa maktablari yoki Barkamol avlod markazlarida emas balki, har bir hududning xususiyatidan kelib chiqib, bosqichma-bosqich dastlab har bir viloyat markazlarida keyin tumanlarda bir-nechta yo'nalishlarni o'ziga jamlagan, alohida zamonaviy uslubdagi "Yosh hunarmandlar" maktabini (markaz) yaratish zarur.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mignosa A., Kotipalli P. A Cultural Economic Analysis of Craft. Switzerland. Springer Nature Switzerland AG. 3-p. 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 22.12.2017. www.gov.uz.
3. . Пугаченкова Г.А. Ремпель Л.И. Очерки искусства Средней Азии. Древность и средневековье. 1982. - М.: Искусство. - С. 4-5.
4. Saidqosimov S. (rahbar), Ahmedov A., Ahmedov B. va boshqalar. Amir Temur jahon tarixida. Toshkent, 2001. 92-98; 155-180 betlar.
5. Бартольд В.В. Соч. в IX томах, т. 2, ч. М.: 1964. с.258.
6. Jean du Plan de Çarpjn. Relation des Mongols ou Tartares. Paris. Arthus-Bertrand, Dondey-Dupré. 1837.
7. Muhammadjonov A. Amir Temur va Temuriylar saltanati. – T.: Qomuslar bosh tahririyati. 1994. – 13; -47 betlar.
8. Ruy González de Clavijo. Historia del gran Tamorlan: e itinerario y enarracion del viage, y relacion de la embajada que Ruy Gonzalez de Clavijo le hizo por mandado del muy poderoso señor rey Don Henrique el Tercero de Castilla. Yun breve discurso. En Madrid. En la imprenta de Don Antonio de Sancha. 1782.190-p.
9. Якубовский А.Ю. Тамерлан, эпоха, личность, деяния. – М.: «Гураш» 23-б. 1992.
10. Якубовский А.Ю. Самарканд при Тимуре и Тимуридах. Ленинград. 19-стр. 1933.
11. Uljaeva SH. Amir Temur saltanatida milliy davlatchilikning rivojlanishi: Tarix fanlari ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. 2008. –T.: TKTI. 184-185 betlar.
12. Груссэ Р. Империя степей. Аттила, Чингиз-хан, Тамерлан.Перевод Х. Хамраева. — Алматы, 2006. 592 с. – 461, – 478, - 480, - 494 стр.
13. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi (ajoyib al-maqdur fitarixi Taymur) I-kitob. – T.: Mehnat. 1992. 245-bet.
14. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi(ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur) II-kitob. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi. 2018. – T.: Fan. 144-bet.

15. Lamb H. Tamerlane The Earth Shaker. Great Britain. The BurlhighPress. 1929. pp.-13, -14, -16.
16. Nizomiddin SHomiy. Zafarnoma. 1996. – T.: O'zbekiston, 300-b
17. Ehmer J. Artisans and Guilds, History of. nternational Encyclopedia of the Social & Behavioral Sciences: Second Edition. 2015. <https://doi.org/10.1016/B0-08-043076-7/02706-6>. 816-p.
18. Пугаченкова Г.А. Искусство зодчих Узбекистана. 1972. – Т.: Фан. -С. 6.
19. . Пугаченкова Г.А. Из истории античной культуры Узбекистана. - Ташкент: 1973. Издательство им. Гафура Гуляма. - С. 19-20.
20. Сайко Э.В. Среднеазиатская глазурованная керамика XII-XV вв. 1969, с. 117-120.
21. Saidqosimov S. (rahbar), Ahmedov A., Ahmedov B. va boshqalar. Amir Temur jahon tarixida. Toshkent, 2001. 160-164 betlar.
22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabrdagi PQ-3451-son «Xorijiy davlatlarda ko'rgazma tadbirlarini o'tkazish uchun mo'ljallangan tovarlarni olib chiqish tartibini soddalashtirish chora- tadbirlari to'g'risida»gi qarori
23. O'zbekiston Respublikasi Tashqi savdo vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Madaniyat vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasining Qarori. «Xorijiy mamlakatlarda o'tkaziladigan ko'rgazma, tanlov va yarmarkalarda namoyish etish uchun hunarmandchilik mahsulotlari olib chiqilishining soddalashtirilgan tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida». 2018 yil 2 may, 3004-son
24. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. «Xalqaro hunarmandchilik festivalini o'tkazishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida». 2018-yil 27-noyabr, 960-son
25. G.F. Ruziyeva “Milliy hunarmandchilik brendini yaratishning turizmni rivojlantirishdagi iqtisodiy hamda psixologik ahamiyati” Buxoro muhnadislik-texnologiya institutining “Fan va texnologiyalar taraqqiyoti” nomli ilmiy texnikaviy jurnali. –Buxoro, 2020. – B 313-317
26. G.F. Ruziyeva “The role of crafts in increasing the attractiveness of national tourism” Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali - Toshkent, 2021
27. G.F. Ruziyeva “Milliy hunarmandchilik brendini yaratishning turizmni rivojlantirishdagi iqtisodiy ahamiyati” Xorazm ma`nun akademiyasi axborotnomasi. Xorazm 2021 yil dekabr